



## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSIYA VA INTEGRATSIYA ATAMALARINING AHAMIYATI VA ULARNING O'ZARO HAMDA BUGUNGI KUN BILAN BOG'LIQLIGI**

**Ro'ziboyeva Nigora Nurmuhammadovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

ruziboyeva2005@gmail.com

tel: +998974477781

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17346363>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda "Innovatsiya" va "Integratsiya" tushunchalarining o'рни va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Innovatsion yondashuvlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativlik va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi, integratsiya esa fanlararo aloqadorlik orqali ta'lim samaradorligini oshirishi ko'rsatib o'tiladi. Maqolada ta'lim jarayonida innovatsiya va integratsiyaning o'zaro uyg'unligi, ularning bugungi kun global ta'limiy islohotlaridagi ahamiyati, shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'zlashtirishni yengillashtirishdagi roli yoritiladi. Shu orqali zamonaviy boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsiya va integratsiya jarayonlarini uyg'unlashtirish zarurligi asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, innovatsiya, integratsiya, fanlararo bog'liqlik, zamonaviy ta'lim, kompetensiya, kreativlik, ta'lim samaradorligi, pedagogik texnologiyalar, global islohotlar.

**Аннотация:** В данной статье проводится научно-теоретический анализ роли и значения понятий «Иновация» и «Интеграция» в начальном образовании. Показано, что инновационные подходы способствуют формированию у учащихся самостоятельного мышления, креативности и современных компетенций, а интеграция, основанная на межпредметных связях, повышает эффективность учебного процесса. В статье раскрывается взаимосвязь инновации и интеграции в образовательном процессе, их значение в современных глобальных реформах образования, а также их роль в облегчении усвоения учебного материала учащимися начальных классов. Тем самым обосновывается необходимость гармоничного сочетания процессов инновации и интеграции в современной системе начального образования.

**Ключевые слова:** Начальное образование, инновация, интеграция, межпредметные связи, современное образование, компетенция, креативность, эффективность обучения, педагогические технологии, глобальные реформы.

**Annotation:** This article analyzes the role and significance of the concepts of "Innovation" and "Integration" in primary education from a scientific and theoretical perspective. It is emphasized that innovative approaches contribute to the development of students' independent thinking, creativity, and modern competencies, while integration improves the effectiveness of education through interdisciplinary connections. The article discusses the interrelation of innovation and integration in the educational process, their importance in today's global educational reforms, as well as their role in facilitating learning for primary school students. Accordingly, the necessity of harmonizing innovation and integration processes in the modern primary education system is substantiated.



**Keywords:** Primary education, innovation, integration, interdisciplinary connections, modern education, competence, creativity, educational effectiveness, pedagogical technologies, global reforms.

Bugungi globallashtirish va raqamli rivojlanish davrida ta'lim tizimida yangicha yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda asosiy poydevor bo'lgani sababli, bu sohada innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda fanlararo integratsiyani samarali tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va fanlararo integratsiyani kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [Mirziyoyev, 2021](1).

"Innovatsiya" atamasi yangilik yaratish, mavjud jarayonlarni takomillashtirish va ta'limga ilg'or metodlarni tatbiq etishni anglatadi. "Integratsiya" esa fanlararo bog'liqlikni kuchaytirish orqali o'quvchilarning bilimlarini tizimli va kompleks shaklda rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu ikki tushunchaning uyg'unligi o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda innovatsiyaning o'rnini o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativlik va muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishda beqiyosdir. Voogt va Roblin (2012) ta'kidlaganidek: "Innovatsiya va XXI asr kompetensiyalarini milliy o'quv dasturlariga integratsiya qilish o'quvchilarni global muammolarga tayyorlashning ajralmas qismidir"(2). Bu fikr boshlang'ich bosqichdan boshlab zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar ham boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metodlar va integratsion yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Shu bois mazkur maqolada innovatsiya va integratsiya atamalarining ilmiy - nazariy asoslari, ularning o'zaro bog'liqligi va zamonaviy ta'limdagi ahamiyati yoritib beriladi.

**Asosiy qism** Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiyaning ahamiyati ta'lim jarayonini yangilash, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi davrda dunyo miqyosida ta'lim tizimi kompetensiyaga asoslangan yondashuv sari intilayotgan bir paytda, innovatsion metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni yechish va yangicha qarashlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

**Innovatsiya** jarayonlari, avvalo, o'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi hamda o'quvchilarga individual yondashuvi bilan chambarchas bog'liq. Boshlang'ich sinflarda elektron ta'lim vositalari, interfaol metodlar, loyiha ishlari va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarda o'rganishga qiziqish uyg'otadi va ta'lim sifatini oshiradi.

**Integratsiya** esa fanlararo bog'liqlikni mustahkamlash orqali o'quvchilarning bilimlarini yanada tizimli va hayotiy qilish imkonini beradi. Masalan, matematika darsida tabiat hodisalari bilan bog'liq misollarni yechish, ona tili darsida esa ilmiy matnlarni o'qish orqali o'quvchi bir vaqtning o'zida bir necha fan bo'yicha bilimga ega bo'ladi. Bu esa

o'zlashtirish samaradorligini oshiradi, o'quvchining bilimni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, **innovatsiya va integratsiyaning uyg'unligi** o'quvchilarda global kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, jumladan, raqamli ta'lim, STEAM yo'nalishlari va fanlararo yondashuvlar ham boshlang'ich ta'lim bosqichida qo'llashni talab qilmoqda. Shu boisdan, innovatsion va integratsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

### **Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar...**

Boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchilarning ilk bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois bu bosqichda innovatsion metod va texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, elektron darsliklar va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish, interaktiv doska va multimedia vositalari orqali dars jarayonini samarali tashkil etish o'quvchilarda mavzuni chuqurroq o'zlashtirish imkonini beradi (Qodirov, 2021)(3). Shuningdek, boshlang'ich sinflarda STEAM-ta'lim elementlarini qo'llash – matematika, tabiiy fanlar va texnologiyalarni amaliy topshiriqlar orqali birlashtirish o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi (Karimova, 2020)(4).

### **Boshlang'ich ta'limda integratsiya jarayonlari...**

Integratsiya boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, fanlararo integratsiya – ona tili darslarida tabiatshunoslik matnlaridan foydalanish, matematika darslarida hayotiy misollarni qo'llash orqali o'quvchilar bilimni turli fanlar kesimida uyg'unlashtirish mumkin (Abdurahmonova, 2018)(5). Bundan tashqari, boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlar va zamonaviy ta'lim standartlarini integratsiya qilish, ya'ni xalq og'zaki ijodidan namunalarni darslarga qo'shish bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish o'quvchilarda vatanparvarlik va zamonaviy tafakkurni uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi.

Salohiddinova Navruza Muradulla qizi "Integration Technology Based on the STEAM Approach (Primary Education Based on the Example of Technology and Natural Sciences)" maqolasida: "STEAM yondashuvi asosida texnologiya va tabiiy fanlarning integratsiyasi boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini, muammo yechish ko'nikmalarini hamda ijodiy qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi", - deb fikr bildiradi. Salokhitdinova va Axmedova (2023) ta'kidlaganidek, STEAM yondashuvi asosida fanlarni integratsiya qilish boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash va ijodiy qarashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu nuqtai nazar zamonaviy pedagogik amaliyotlarda ham tasdiqlanadi: fanlararo loyiha va interaktiv topshiriqlar orqali o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishi, muammoni mustaqil hal qilish qobiliyati va ijodiy yondashuvi sezilarli darajada oshadi. Shu bois, STEAM yondashuvi boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiluvchi muhim innovatsion vosita sifatida qaraladi.

### **Innovatsiyaning ahamiyati**

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarning ilk bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Raqamli darsliklar, interaktiv taqdimotlar, elektron testlar va multimedia vositalari o'quv jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Innovatsion metodlar

yordamida o'quvchilar mavzuni chuqurroq tushunadi, tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi va o'quv jarayonida mustaqillik oshadi.

### **Fanlararo integratsiya**

Fanlararo integratsiya boshlang'ich ta'limda bilimlarni kompleks tarzda o'zlashtirish imkonini beradi. Masalan, matematika va tabiiy fanlarni birlashtirib dars berish orqali o'quvchilar mavzuni hayotiy kontekstda tushunadi (Abdurahmonova, 2018). Shu bilan birga, fanlararo loyihalar va topshiriqlar bolalarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

### **Amaliy loyihalar va laboratoriya ishlar**

Amaliy faoliyat o'quvchilarga nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi. Saidova va Ibrahimova (2020) ta'kidlashicha, matematika darslarida pedagogik texnologiyalar va o'yin elementlarini integratsiya qilish mavzuni tushunishni osonlashtiradi va o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Shu tarzda amaliy loyihalar boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

**Xulosa:** Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va integratsiya tushunchalari zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativlik, axborot-kommunikatsion kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Integratsiya esa fanlararo aloqadorlikni ta'minlab, bilimlarning tizimlilikini oshiradi, o'quvchilarda dunyoqarashning yaxlitligini shakllantiradi va o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi.

Shunday qilib, innovatsiya va integratsiyaning o'zaro uyg'unligi boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash hamda global ta'limiy islohotlar talablariga javob beruvchi kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### **Takliflar:**

1. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun innovatsion va integratsion metodlarni o'rgatishga qaratilgan malaka oshirish kurslarini muntazam tashkil etish;
2. O'quv dasturlarini fanlararo integratsiyani ta'minlaydigan tarzda qayta ko'rib chiqish va amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratish;
3. O'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi interaktiv, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni dars jarayoniga keng joriy etish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya va ilm-fan roli". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqi. Toshkent: Prezident.uz. <https://president.uz/oz/lists/view/1309>
2. Voogt, J., & Roblin, N. P. (2012). A comparative analysis of international frameworks for 21st century competences: Implications for national curriculum policies. *Journal of Curriculum Studies*, 44(3), 299–321. <https://doi.org/10.1080/00220272.2012.668938>
3. Salokhitdinova, N. M., & Axmedova, S. B. (2023). STEAM yondashuvi boshlang'ich ta'limda. *Journal of Higher Education and Academic Advancement*, 3(2), 110–118. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8039777>



4. Jamoldinova, F. (2021). Boshlang'ich sinflarda ta'lim va tarbiya integratsiyasi. Educational Research in Universal Sciences, 5(1), 45–52. <https://erus.uz/index.php/er/article/view/23>
5. Saidova, M. J., & Ibrahimova, M. F. (2020). Boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash. Central European Journal of Social Research, 2(5), 99–105. R.Mavlonova va N.Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'l pedagogikasi, innovatsiyasi v integratsiyasi" o'quv qo'llanma Toshkent Voris nashriyoti 2013
6. O.Musurmonova "Umumiy pedagogika " o'quv qo'llanma 2020-yil
7. 1. Panjiyeva M, Ergasheva O. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi. O'quv qo'llanma T.: DTPI. 2023-yil